



2019 yilda Andijon viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatgichlari



O'zbekiston – sayyohlik sohasida ulkan imkoniyatlarga ega mamlakat. Turizm sohasi yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda bu soha rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turizm, ayniqsa, ichki sayyohlik xizmatini rivojlantirish borasida Andijon viloyatida ham e'tiborga molik ishlar olib borilmoqda.


Turizm - kishilarning doimiy yashash joyidan tashqaridagi joylarga xarakatlanishi bilan bog'liq ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisalar tushiniladi, odatda bunga sabab bo'lib sayr qilish va dam olish xisoblanadi.

2019-yilda jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati

Jamoaviy joylashtirish vositalari 51 ta, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob'ektlari soni – 73 ta. Ularda 2019-yilda 73158 nafar odamlar joylashtirilgan.

	soni	ulardagi ob'ektlar soni	Nomerlar (Xonalar)	joylar soni	Joylashtirilgan shaxslar soni ,kishi
Jamoaviy joylashtirish vositalari	51	73	1145	3339	73158
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	22	22	553	958	53393
ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari	29	51	592	2381	19765

Sayyohlarning tunab qolishlari soni (kishi,kun)






2019 yilda Andijon viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatgichlari



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 22 ta. Ularda joylashtirilgan shaxslar jami 53393 ta bolib, ulardan 41454 nafari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, MDH mamlakatlaridan 5967 ta va 5972 nafar uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari



Safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi







2019 yilda Andijon viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatgichlari



2019 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

Andijon viloyatida jami 18 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 4 tasi 3 yulduzli, 4 tasi 1 yulduzli va qolgan 10 tasi toifaga ega emas. Mehmonxonalarda jami 531 nomer (xona) bo'lib, ularda 906 joy mavjud. Mehmonxonalarga 2019- yilda 51904 ta odam joylashtirilgan. ularning 41446 nafari O'zbekiston fuqarolari, 4851 nafari MDH mamlakatlaridan qolgan 5607 tasi uzoq xorijiy mamlakatlardan kelgan sayyohlar. Tunab qolishlar esa 101,3 ming birlikni tashkil etdi.





2019-yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, Birlik	Qiymati ming so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni	325	183396
ulardan bevosita aholiga	325	183396
shu jumladan :		
O'zbekiston hududi bo'ylab O'zbekiston fuqarolariga	313	180600
Chet el mamlakatlari bo'ylab O'zbekiston fuqarolariga	12	2796

Andijon viloyatida 2019-yilda 325 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan, ularning qiymati jami 183396 ming so'mni tashkil etadi. Ulardan 12 tasi kichik korxona va mikrofirmalar hisobiga tog'ri keladi.

